XALQ DEPUTATLARI FARG‘ONA SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 16-oktabr VI-114-82-11-169-K/24 Farg‘ona shahar

Farg‘ona shahridagi geografik obyektlarni nomlash borasida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-mart kunidagi 48-son “Shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori talablariga muvofiq hamda Xalq deputatlari Farg‘ona shahar Kengashining 2024-yil 23-may kungi VI-107-45-11-169-K-son qaroriga asosan Farg‘ona shahar hududidagi “Ilg‘or” mahalla fuqarolar yig‘ini negizida Davlat kadastrlari palatasi Farg‘ona shahar bo‘limi tomonidan taqdim etilgan mahallalar hududiy chegaralarini aks ettirgan chizmasi asosida yangi mahalla fuqarolar yig‘ini tashkil qilindi.

Shunga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida” qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi 295-son qaroriga asosan Farg‘ona shahar hokimligi huzuridagi “Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha komissiyasi” tomonidan yangi tashkil etilgan nomsiz geografik obyektni (mahalla fuqarolar yig‘inini) nomlash bo‘yicha taklif tayyorlanib, Farg‘ona viloyati hokimligi huzuridagi “Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha komissiyasi”ga hamda Respublika toponimika xizmati boshqarmasiga “Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqida” ekspert xulosasini olish uchun yuborildi.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasi tomonidan olib borilgan o‘rganish natijasiga muvofiq Farg‘ona shahar hokimligi huzuridagi “Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha komissiyasi”ning geografik obyektni nomlash bo‘yicha bergan taklifi qonun talablariga muvofiq deb topilib, (05-19-01-4124-son, 2024-yil 24-sentabr kungi) ijobiy xulosa berildi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, shuningdek, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 24-moddasiga asosan Xalq deputatlari Farg‘ona shahar Kengashi,

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi 295-son qaroriga muvofiq Farg‘ona shahridagi nomsiz geografik obyektga (mahalla fuqarolar yig‘iniga) nom berish borasida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi Farg‘ona shahar hokimi maslahatchisi F.Mamajonovning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Farg‘ona shahar hokimligi huzuridagi “Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha komissiyasi” tomonidan geografik obyektni (mahalla fuqarolar yig‘inini) nomlash bo‘yicha taqdim etilgan hamda qonun talablariga muvofiq deb topilgan geografik obyekt (1 ta MFY) nomi ilovaga asosan tasdiqlansin, shuningdek, belgilangan tartibda davlat reyestri bazasiga kiritilsin.

3. Belgilansinki, ushbu qaror imzolangan vaqtdan boshlab kuchga kiradi.

4. Mazkur qaror bajarilishiga Davlat kadastrlari palatasi Farg‘ona shahar bo‘limi (O.Karimov) shaxsan mas’ul ekanligi belgilab qo‘yilsin.

5. Ushbu qaror bajarilishining nazorati Xalq deputatlari Farg‘ona shahar Kengashining Ta’lim, sog‘likni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi Sh.Siddiqova hamda Farg‘ona shahar hokimining maslahatchisi F.Mamajonovlar zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi NAZAROV VOSILJON SHUXRATOVICH

Xalq deputatlari Farg‘ona shahar
Kengashining
2024-yil 16-oktabrdagi
VI-114-82-11-169-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Farg‘ona shahri bo‘yicha yangi tashkil qilingan geografik obyekt (MFY)ga nom berish to‘g‘risida
MA’LUMOT

№	Geografik obyekt turi	Geografik obyektning bog‘lanishi	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan takliflar	Izoh
I	**II**	**III**	**IV**	**V**	**VI**
1.	MFY	Farg‘ona shahar	“Ilg‘or” MFY tarkibidan ajralib chiqqan (Nomsiz)	**Nurafshon**	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.